

Bank xizmatlari iste'molchilari bilan nizolarni sudgacha hal qilish usullari va imkoniyatlari

Bank xizmatlari iste'molchilari bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha "TBC Bank" ATB (bundan buyon matnda "Bank" deb ataladi) bilan nizolar yuzaga kelgan taqdirda, nizoni sudgacha hal qilish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2018-yil 2-iyuldagi 3030-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklari faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi nizomda va 1998-yil 28-avgustdagi O'RQ-670-X-sonli "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunda, shuningdek, bank va bank xizmatlari iste'molchisi o'rtasidagi shartnomada belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bank xodimlari bank xizmatlaridan foydalanuvchilar bilan tuzilgan shartnomalardan kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklarni sudgacha hal etish uchun barcha choralarni ko'radilar.

Bunda Bank bilan shartnoma tuzgan iste'molchi, birgalikda qarz oluvchi, garovga qo'yuvchi, kafil va Shartnomada ko'rsatilgan boshqa shaxslar Shartnomaning tomonlari deb tan olinadi.

Bankda nizolarni sudgacha hal etishning quyidagi tartibi belgilangan:

- Iste'molchi tomonidan kredit shartnomasi bo'yicha asosiy qarz summasini qaytarish va (yoki) foizlarni to'lash muddatlari buzilgan taqdirda, nizoni tegishli kredit shartnomasida nazarda tutilgan usulda sudgacha hal etish to'g'risidagi talabni iste'molchiga ma'lum qilish. Nizoni sudgacha hal qilish to'g'risidagi talabnomada ko'rsatilgan muddatda iste'molchi tomonidan talablar lozim darajada bajarilmagan taqdirda, bevosita yoki Savdo-sanoat palatasining tegishli boshqarmasi orqali sud organlariga murojaat qilish;

- Iste'molchi kredit majburiyatlari bilan bog'liq bo'lmagan shartnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini buzgan taqdirda, tegishli shartnomada ko'rsatilgan usul orqali nizoni sudgacha hal etish talabini iste'molchiga ma'lum qilish. Shartnomada nizoni sudgacha hal etish tartibi mavjud bo'lmagan taqdirda, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda. Nizoni sudgacha hal qilish to'g'risidagi talabnomada ko'rsatilgan muddatda iste'molchi tomonidan talablar lozim darajada bajarilmagan taqdirda, bevosita yoki Savdo-sanoat palatasining tegishli boshqarmasi orqali sud organlariga murojaat qilish;

Bank sudga to'g'ridan-to'g'ri yoki Savdo-sanoat palatasining tegishli boshqarmasi orqali murojaat qilish tanlovini o'z ixtiyoriga qarab amalga oshiradi.